

## MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Rajabova Mohinur Xusan qizi*

### ANNOTATSIYA

Hozirgi davr pedagoglarning asosiy maqsadi, maxsus yordamga muhtoj bolalarni, zamonaviy hayot texnologiyalari bilan chambarchas bog'lagan xolda, hayotga tayyorlashdir. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan dars esa davr talabidir. Ilg'or pedagogning muvaffaqiyat siri, ta'lism sifatini oshirishda, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni maxsus ta'linda qo'llay olish va ta'lim samarasini oshirishdir.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, ta'lism, maxsus yordamga muhtoj bolalar

### АННОТАЦИЯ

Основная цель современных педагогов – подготовить детей с особыми потребностями к жизни, тесно связанной с современными жизненными технологиями. Урок, обогащенный современными технологиями, – веление времени. Секрет успеха передового педагога заключается в повышении качества образования, использовании современных образовательных технологий в специальном образовании и повышении эффективности образования.

**Ключевые слова:** современные технологии, образование, дети с особыми потребностями.

### ANNOTATION

The main goal of modern pedagogues is to prepare children with special needs for life, closely connected with modern life technologies. A lesson enriched with modern technologies is the demand of the times. The secret of the success of an advanced pedagogue is to improve the quality of education, to use modern educational technologies in special education and to increase the effectiveness of education.

**Key words:** modern technologies, education, children with special needs

Sog'lom bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lum-tarbiysi juda tubdan farq qiladi. Sog'lom bolalar ko'rgan, eshitgan narsalarini esda saqlab qolish, qo'shimcha bilimlarni tahlil qilish, hamda ularni tushuntirish va bir tizimga keltirish va mustahkamlashda qiyinchilikka ko'p ham duch kelishishmaydi. Ammo rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bu jarayonda ancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuni hisobga olgan holda alohidayordamga muhtoj bolalar ta'lum-tarbiyasida bir qancha yo'naliishlarga e'tibor qaratish lozim. Jumladan ta'lum jarayonida maxsus metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab qilinadi. Bu xususiyatlarga to'xtalishdan oldin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifalari bilan tanishamiz.

1. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar.
2. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar.
3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.
4. Aqliy rivojlanishi sust bolalar.
5. Xarakat-tayanch sistemasida nuqsoni bo‘lgan bolalar.
6. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar.
7. Murakkab nuqsonli bolalar.
8. Autizm sindromli bolalar.

Nuqson turlariga qarab ularning ta’lim jarayonlari ham farqlanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayoni bolalarning nutqini o‘stirish, lug‘at boyligini oshirish, aqliy qobilyatlarini rivojlantirish, bilish xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Hozirgi davr pedogoglari zamonaviy ta’lim texnologiyalarini mukammal bilishi shart. Chunki davr o‘zgargani sari texnologiyalar ham jadal rivojlanmoqda. Maxsus ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda. Jumladan eshituv apparatlari, ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, elektron doskalar shular jumlasidandir. Ta’lim samaradorligini oshirish eng avvalo, pedogogning pedagogik mahorati hamda uning ta’lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda pedogoglarning mahorat darajasi har bir mashg‘ulot hamda o‘rganilayotgan mavzuning o‘quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvini taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyan bo‘luvchi holatlarning asosiysi esa bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sananladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini bir qancha yo‘nalishlarga ajratishimiz ham mumkin.

1. O‘yin texnologiyalari
2. Dengil ta’lim texnologiyalari
3. Kollektiv ta’lim texnologiyalari
4. O‘qishni o‘rganish texnologiyalari
5. Muammolarni o‘rganish texnologiyalari
6. Shaxsiy moslashtirilgan texnologiyalar
7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Maxsus maktablarda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yuqori darajada samara berib kelmoqda. Chunki maxsus maktab o‘quvchilari nuqsonning turiga qarab rivojlanishi va bilim olishi xam turli har xil bo‘ladi. Maxsus maktab o‘quvchilarining eshitishda nuqsoni bo‘lgan va nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar guruhlari asosan materiallarni ko‘rish va sezgi orqali eslab qoladilar. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar esa asosan taktil orqali eslab qolish qobilyatiga egalar. Shuning uchun dars mashg‘ulotlari zamonaviy texnologiyalardan foydalanilagan holda olib borilishi zarur. Maxsus ta’lim jarayonida tuzatuv texnologiyalari va o‘yin

texnologiyalaridan foydalanamiz. Xar ikkala texnologiya turlari ham rivojlanishida nuqsoni mavjud bo‘lgan bolalarning nutqini o‘stirish, eshitish qoldig‘ini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish va bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Xulosa.** Zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan boyitilgan dars turlari juda oddiy dars turlaridan farq qilib, bunday dars turlarida o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayonlari samaradorligi yuqori bo‘ladi va albatta xozirgi zamonaviy pedagoglari darslarni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy pedagogik metodlar bilan chambarchas olib borishi kerak. Shuni xam ta’kidlab o‘tish kerakki maxsus maktablarda zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan darslar samaradorligi yuqori bo‘ladi va o‘quvchilar bilim olish jarayonlari ham yuqori darajada ta’mlangan bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.U.Xamidova “Maxsus pedagogika” Toshkent-2018.
2. Alimxo’jayeva F.J“zaif eshituvchi bolalar eshitish qobilyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish”
3. Боскис Р.М Глухие и слабослышащие дети. М. Изд АПН РСФР 1969
4. L.Mo’manova, Sh.Amirsaidova va boshqalar “Maxsus psixologiya”